

# YANGI O'ZBEKISTON: 2026

CONFERENCES.UZ


ILMIY TADQIQOTLAR

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



George Stephenson.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORUJY OLIVY TALIM MUJASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TADIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL  
№90



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР 2-  
ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ЧАСТЬ-2**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC  
RESEARCH PART-2**

ТОШКЕНТ-2026



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 90-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 78 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

***1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -***

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

***2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қараишлар -***

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

***3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –***

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

***4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -***

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

***5. Давлат бошқаруви -***

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

***6. Журналистика -***

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)





**7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –**

Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

**8. Адабиёт-**

PhD Абдужаидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

**11. Жисмоний тарбия ва спорт-**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14. Тасвирий санъат ва дизайн-**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15. Мусиқа ва ҳаёт-**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17. Физика-математика фанлари ютуқлари -**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –**

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

**19. Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

**20. Ветеринария**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**21. Кимё фанлари ютуқлари -**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -**

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)**

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

**Page maker/Верстка/Сахифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакции журнала.**

**[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of**

**[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:  
[info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

TADBIRKORLIK ETIKASI TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY  
ASOSLARI

Ubaydulloyeva Farangiz Rustamovna  
Samarqand davlat chet tillar instituti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tadbirkorlik etikasi transformatsiyasining falsafiy asoslari, uning zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib borish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadbirkorlik faoliyatida axloqiy qadriyatlar, mas'uliyat, halollik, adolat va manfaatlar muvozanatining ahamiyati falsafiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, globallashtirish, raqamlashtirish va raqobat sharoitida tadbirkorlik etikasining yangi mazmun kasb etishi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik etikasi, axloq, falsafa, mas'uliyat, iqtisodiy manfaat, halollik, ijtimoiy mas'uliyat, globallashtirish, qadriyat.

**Аннотация.** В данной статье анализируются философские основы трансформации деловой этики и особенности ее изменения под влиянием современных экономических и социальных процессов. С философской точки зрения освещаются значение этических ценностей, ответственности, честности, справедливости и баланса интересов в предпринимательской деятельности. Также рассматривается формирование нового содержания деловой этики в условиях глобализации, цифровизации и растущей конкуренции.

**Ключевые слова:** деловая этика, мораль, философия, ответственность, экономическая выгода, честность, социальная ответственность, глобализация, ценность.

**Abstract.** This article analyzes the philosophical foundations of the transformation of business ethics and the characteristics of its evolution under the influence of modern economic and social processes. The importance of ethical values, responsibility, honesty, justice, and the balance of interests in entrepreneurial activity is highlighted from a philosophical perspective. Furthermore, it examines how business ethics acquires new content in the context of globalization, digitalization, and increasing competition.

**Keywords:** business ethics, morality, philosophy, responsibility, economic interest, honesty, social responsibility, globalization, value.

Tadbirkorlik jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda, murakkab axloqiy munosabatlar tizimini ham shakllantiradi. Har qanday tadbirkorlik qarori iqtisodiy natijadan tashqari xodimlar, iste'molchilar, hamkorlar va jamiyat manfaatlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tadbirkorlik etikasi iqtisodiy faoliyatning ikkilamchi jihati emas, balki uning barqarorligini belgilovchi muhim ma'naviy mezonlardan biridir. Falsafiy nuqtayi



nazardan etika inson xatti-harakatining yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, burch hamda mas'uliyat kabi mezonlarini o'rganadi. Tadbirkorlik faoliyatiga tatbiq etilganda esa mazkur kategoriyalar iqtisodiy manfaat bilan axloqiy talab o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Aristotel iqtisodiy faoliyatni insonning umumiy farovonligi bilan bog'lab, boylilik orttirish yakuniy maqsad bo'la olmasligini ta'kidlagan [1,87]. Mazkur g'oya bugungi tadbirkorlik etikasi uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan.

An'anaviy tadbirkorlik modelida asosiy e'tibor foyda, mulk va iqtisodiy samaradorlikka qaratilgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda mazkur tushunchalar ijtimoiy mas'uliyat bilan tobora ko'proq uyg'unlashmoqda. Ayniqsa, jamiyatda iste'molchilar huquqlarining kuchayishi, ekologik muammolar va mehnat munosabatlaridagi o'zgarishlar tadbirkordan faqat qonun doirasida emas, balki axloqiy me'yorlar asosida ham faoliyat yuritishni talab qilmoqda.

Immanuel Kantning insonni hech qachon faqat vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida ko'rish zarurligi haqidagi fikri tadbirkorlik munosabatlarida alohida ahamiyat kasb etadi [2,112]. Chunki xodimga faqat ishlab chiqarish resursi, iste'molchiga esa daromad manbai sifatida munosabatda bo'lish axloqiy jihatdan biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Tadbirkorlik etikasi inson manfaatlarini iqtisodiy maqsadlar bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.

Bugungi globallashuv jarayonlari tadbirkorlik etikasiga yangi talablarni olib kirmoqda. Turli madaniyatlar, biznes an'analari va axloqiy qarashlarning o'zaro yaqinlashuvi universal biznes qadriyatlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Halollik, shaffoflik, shartnomaga sodiqlik va korrupsiyadan voz kechish xalqaro tadbirkorlik munosabatlarining muhim mezonlariga aylanmoqda [3, 54].

Raqamli iqtisodiyot ham tadbirkorlik etikasini tubdan o'zgartirmoqda. Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, sun'iy intellekt orqali qaror qabul qilish, onlayn savdo va raqamli marketing biznes subyektlari oldiga yangi axloqiy masalalarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda qonuniylikning o'zi yetarli bo'lmay, tadbirkorning vijdoniy mas'uliyati ham katta ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Tadbirkorlik etikasi transformatsiyasi iqtisodiy taraqqiyot bilan ma'naviy qadriyatlarining o'zaro bog'liqligini yaqqol namoyon etadi. Zamonaviy tadbirkorlik falsafasi foydani mutlaq maqsad sifatida emas, balki jamiyat manfaatlarini, inson qadr-qimmatini va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda ko'rishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan tadbirkorlik etikasining rivojlanishi halollik, adolat, mas'uliyat va ishonch tamoyillariga tayangan biznes madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq. Etik mezonlarga amal qiluvchi tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy jihatdan barqaror, balki jamiyat tomonidan ishonch bilan qabul qilinadigan ijtimoiy institutga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aristotel. Nikomax etikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 238 b.
2. Kant I. Praktika aql tanqidi. – Moskva: Nauka, 1994. – 528 b.



3. Котлер Ф., Ли Н. Корпоративная социальная ответственность. Как сделать как можно больше добра для вашей компании и общества. – Киев: Стандарт, 2005. – 302 с.

4. Фукуяма Ф. Доверие: социальные добродетели и путь к процветанию. – Москва: АСТ, 2004. – 730 с.

5. Карнеги Э. Этика бизнеса и социальная ответственность предпринимательства. – Москва: Альпина, 2019. – 264 с.





ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA  
O‘ZARO JAMOAT YORDAM KASSALARI FAOLIYATIDAGI  
MUAMMOLAR VA ZIDDIYATLAR

**Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Ma‘mun universiteti “Tarix” kafedrası v.b. dotsenti.

E-mail: [allaberganov\\_ollabergan@mail.ru](mailto:allaberganov_ollabergan@mail.ru)

(UO‘K) 94(575.171):364“1945/1991”

<https://orcid.org/0009-0002-8596-0926>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida o‘zaro jamoat yordam kassalarining tashkil etilishi, ularning huquqiy-me‘yoriy asoslari hamda amaliy faoliyatida kuzatilgan muammolar tahlil qilinadi. Tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, me‘yoriy hujjatlar va statistik ma‘lumotlar asosida o‘zaro jamoat yordam kassalar faoliyatining asosiy kamchiliklari, jumladan mablag‘larning suiiste‘mol qilinishi, nazoratning sustligi hamda bu holatlarning qishloq aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimiga salbiy ta‘siri yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston SSR, Xorazm viloyati, qishloq, kolxoz, kolxozchilar, o‘zaro jamoat yordam kassalari, qishloq aholisi, ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy himoya, moddiy yordam, kolxoz daromadi, badal tizimi, sovet davri.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Sovet Ittifoqi va uning tarkibidagi O‘zbekiston SSR uchun ham iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan murakkab bosqich bo‘ldi. Urush oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik, mehnat resurslarining kamayishi, nogironlar hamda boquvchisini yo‘qotgan oilalar sonining ortishi qishloq aholisi uchun ijtimoiy ta‘minot tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu maqsadda O‘zbekiston SSR hududida, jumladan Xorazm viloyatida kolxozchilarning o‘zaro jamoat yordam kassalari faoliyatini tiklash va kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Sovet Ittifoqi va uning tarkibidagi ittifoqdosh respublikalarda o‘zaro jamoat yordam kassalari faoliyatining huquqiy-me‘yoriy asosi SSSR Ministrlar Sovetining 1931-yil 13-martdagi “Kolxozlarda o‘zaro jamoat yordam kassalari to‘g‘risidagi[1]” nizomi bilan yaratilgan bo‘lib, urushdan keyingi yillarda uning faoliyatini qayta tiklash va takomillashtirish bo‘yicha yangi qarorlar qabul qilindi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida o‘zaro jamoat yordam kassalari faoliyatidagi muammolar va ziddiyatlar alohida mavzu sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Sovet davriga oid “O‘zbekiston SSR tarixi”[2], mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy asarlar va tadqiqotlarda, jumladan, M.Matniyozovning “Xorazm tarixi”[3], Q.Rajabov mas‘ul muharrirligida chop etilgan “O‘zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy



faoliyati (1945–1983-yillar)” [4], A.Mannopov, S.Mirzaahmedova muallifligida “75 mehru shafqat yillari” [5] nomli kitoblarda, 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida o‘zaro jamoat yordam kassalari faoliyatidagi muammolar va ziddiyatlar qisman yoritilgan. Shuningdek, ushbu mavzuni o‘rganishda arxiv hujjatlari, “Xorazm haqiqati” gazetasi tadqiqotning manbaviy asosi bo‘lib xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani tayyorlash jarayonida sinxron usul, qiyosiy-tarixiy usul, statistik tahlil hamda tarkibiy tahlil metodidan foydalanildi[6]. Bu usullar orqali 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida o‘zaro jamoat yordam kassalari faoliyatidagi muammolar va ziddiyatlar tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda o‘zaro jamoat yordam kassalari qishloq aholisiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va kolxozchilarning hayot darajasini oshirish, urushdan qaytgan askarlar, nogironlar va ocharchilikdan aziyat chekkan oilalarga yordam berish maqsadida qayta tashkil qilingan edi. Ammo o‘zaro jamoat yordam kassalari davlat mablag‘i hisobidan emas, balki qishloq aholisi, ya‘ni kolxozchilarning yillik daromadining 2% dan 5% gacha bo‘lgan miqdorda badal pullari evaziga tashkil etildi. Lekin bu tizim o‘zini to‘laqonli oqlamadi. O‘zaro jamoat yordam kassalari faoliyatida bir qator muammolar va ziddiyatlar yuzaga kelgan. Jumladan, kolxozlarda o‘zaro jamoat yordam kassalarini tashkil qilish maqsadida O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1948-yil 8-dekabrda 2307-sonli qaror qabul qilgan. Qaror kolxozlarda o‘zaro jamoat yordam kassalarini tashkil qilishni ikkinchi bor ya‘ni takroran ko‘zda tutgan bo‘lib, bu avvalgi urinishlar muvaffaqiyatsizlik bilan tugaganligini anglatadi. Ushbu qaror bo‘yicha kolxozlarda o‘zaro yordam kassalarini tashkil qilish jarayoni 1949-yil 1-martgacha yakunlanishi kerakligi qayd etilgan edi. Shuningdek, kolxozlarda o‘zaro jamoat yordam kassalarini tashkil qilish masalasi kolxozlar nizomining 11-modda 5-bandida aniq belgilangan bo‘lsa ham, ayrim kolxoz rahbarlari bunga ahamiyat bermaganligi aniqlanib, bu mas‘uliyatsizlik yoki qarorning amalda qo‘llanilishida qiyinchiliklar borligini bildiradi[7].

1949-yil 16-iyundagi “Kolxozchilarning o‘zaro jamoat yordami kassalarining namunaviy ustavi” qabul qilinib, ustavga asosan qishloq sovetlarida moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan shaxslar, mehnat qobiliyatini yo‘qotgan va qariligi sababli ishlashga qurbi yetmaydigan kolxozchilar hamda ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar jamoat yordami kassalaridan ko‘mak olishlari belgilab qo‘yildi. Ammo, viloyatning Urganch, Yangiariq va Xonqa tumanlarida kolxozchilarning o‘zaro jamoat yordam kassalari ustavida ko‘rsatilgan tartibda faoliyat olib bormaganligi aniqlangan. Bu tumanlarda kolxozchilarning daromadi hisobiga tashkil etilgan kassalardagi mablag‘lari talon-toroj qilingan. Masalan, Urganch tuman “Yuqoribog‘” qishloq sovetidagi Kuybishev nomidagi kolxozida kassa mablag‘larini rais va bosh hisobchi taqsimlab olish holati yuz bergan. 1948-yilda kolxoz raisi o‘zaro jamoat yordam kassasidan qaytarib bermaslik sharti bilan 1000 so‘m pulni o‘zlashtirgan bo‘lsa, 1949-yil avgust oyiga kelib rais xuddi shu yo‘l bilan yana jamoat kassasidan 5 ming so‘m pulni talon-taroj qilgan. E‘tiborlisi



shundaki, 1949-yilda mazkur kolxozdagi moddiy yordamga muhtoj aholi va yetim bolalarni o'z qaramog'iga olgan insonlarga jamoat kassasidan hech qanday yordam ko'rsatilmagan[8]. Viloyat ijtimoiy ta'minot bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, yuqoridagiga o'xshash salbiy holatlar vohaning boshqa tuman qishloq sovetlarida ham qayd etilgan. Jumladan, Yangiariq tumanida 39 ta o'zaro jamoat yordami kassalari tashkil qilingan bo'lsa-da, ularning atigi 12 ta kolxozdagina o'zaro jamoat yordam kassalar faoliyat olib borgan xolos. Shuningdek, viloyatning Xonqa tumanidagi "Sarapayon" qishloq sovetidagi Oxunboboyev nomli kolxozda ham o'zaro jamoat yordami kassalari tashkil qilingan bo'lishiga qaramasdan bu kassalar ham ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga hech qanday yordam ko'rsatmagan. Kassa mablag'lari kolxoz raisi va hisobchilar tomonidan talon-taroj qilingan[9].

Xorazm viloyatida 1950-yilga kelib 417 ta kolxozda o'zaro jamoat yordam kassalari tashkil qilinishi kerakligi belgilangan bo'lib, yil yakuniga borib faqat o'zaro jamoat yordam kassalarining soni 235 taga yetdi, ya'ni rejaning 56 foizi bajarildi[10]. Ammo, viloyatdagi 182 ta kolxozda, ya'ni kolxozlarning 44 foizida o'zaro jamoat yordam kassalari tashkil etilmagan va aholining yordamga muhtoj qismi ijtimoiy ta'minotsiz qolib ketgan.

1960-yilga kelib viloyatdagi 101 ta kolxozning 98 tasida o'zaro jamoat yordam kassalari tashkil qilishga erishilgan. Ammo, viloyatning Gurlan va Hazorasp tumanlarida o'zaro jamoat yordam kassalari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi bilan ajralib turar edi[11]. O'zaro jamoat yordam kassalari aholining ijtimoiy ta'minotini yaxshilash maqsadida jamg'arilgan mablag'larning mas'ul rahbar xodimlar tomonidan talon-taroj qilingani sababli, kassalar faoliyati aholining ijtimoiy ta'minotiga ijobiy ta'sir ko'rsata olmadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida o'zaro jamoat yordam kassalari qishloq aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning muhim tizimi sifatida shakllantirilgan bo'lsa-da, ularning faoliyati kutilgan samarani bermadi. Bunga, avvalo, kassalarning moliyaviy bazasi davlat mablag'lari hisobidan emas, balki qishloq aholisi, ya'ni kolxozchilar daromadidan undirilgan badallar hisobiga shakllantirilgani, shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatidagi ayrim kamchiliklar, moliyaviy nazoratning juda sustligi va mablag'larning mansabdorlar tomonidan talon-taroj qilinishi sabab bo'ldi. Natijada, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan ushbu tizim o'zining asosiy vazifasini to'liq bajara olmadi. Shu jihatdan, o'zaro jamoat yordam kassalari sovet ijtimoiy ta'minot siyosatining muhim elementi bo'lishiga qaramay, amalda ehtiyojmand oilalarga to'laqonli yordam ko'rsata olmadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Гусев А.Ю. Защита социально-обеспечительных прав граждан: проблемы, перспективы, тенденции: монография. – Москва: "Кнорус", 2022. – С. 55.
2. Ўзбекистон ССР тарихи. 4-жилд. –Тошкент: "Фан", 1971. 217-218-б.
3. Матниёзов М. Хоразм тарихи. 2-жилд. –Урганч, 1997. 173-б.



4. Ражабов Қ. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945 - 1983 йиллар). –Тошкент: “Фан”, 2020.
5. Маннопов А, Мирзааҳмедова С. 75 меҳру шафқат йиллари. –Тошкент: “Адолат”, 1994. 5-6-б.
6. Шадманова С. Тарих тадқиқотларининг методологияси ва замонавий усуллари. –Тошкент: “Баркамол файз медиа”, 2018. 70-б.
7. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170-fond, 1-ro‘uxat, 17-yig‘ma jild. 19-varaq.
8. Колхозларда ўзаро ёрдам кассаланинг ишини яхшилашлик // “Хоразм ҳақиқати”, 1950 йил 6 январ.
9. Колхоз қишлоқларининг қурилиши ва уларни обод қилиш тўғрисида // “Хоразм ҳақиқати”, 1949 йил 23 август.
10. Xorazm viloyat davlat arxivi. 170-fond, 1-ro‘uxat, 17-yig‘ma jild. 4-varaq.
11. Xorazm viloyat davlat arxivi. 406-fond, 1-ro‘uxat, 9-yig‘ma jild. 64-varaq.



**MINTAQAVIY BUDJETDA SOLIQ TUSHUMLARINI  
EKONOMETRIK TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI  
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**Suvanova Muxlisa Umar qizi**

Xorazm viloyati soliq boshqarmasi  
Ishlab chiqarish va yordamchi xodimlar  
tarkibining mehnatni muhofaza qilish  
bo'yicha kichik mutaxassisi.  
E-mail: [muxlisa26082001@icloud.com](mailto:muxlisa26082001@icloud.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqaviy budjetda soliq tushumlarini ekonometrik tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, Xorazm viloyati misolida soliq tushumlarini ekonometrik tahlil qilish masalalari muhokama qilingan hamda xulosalar bayon etilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы эконометрического анализа налоговых поступлений в региональном бюджете. Также обсуждаются вопросы эконометрического анализа налоговых поступлений на примере Хорезмской области и представлены выводы.

**Abstract.** This article discusses the theoretical and methodological foundations of econometric analysis of tax revenues in the regional budget. Also, the issues of econometric analysis of tax revenues in the case of the Khorezm region are discussed and conclusions are presented.

**Kalit so'zlar.** Budjet, mintaqaviy budjet, soliq, soliq tushumlari, ekonometrik tahlil.

**Ключевые слова.** Бюджет, региональный бюджет, налог, налоговые поступления, эконометрический анализ.

**Key words.** Budget, regional budget, tax, tax revenues, econometric analysis.  
Davlat budjeti daromadlarining barqaror shakllanishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim moliyaviy asosini tashkil etadi. Bunda soliq tushumlari budjet daromadlarining ustuvor manbai bo'lib hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq va budjet islohotlari mintaqalar kesimida soliq salohiyatini oshirish, soliq tushumlarini ilmiy asoslangan holda prognozlashtirish va rejalashtirish masalalarini dolzarb qilib qo'yimoqda. Xususan, 2024-yilning birinchi yarim yilligida davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlar 33,3 foizni va bilvosita soliqlar 33,1 foizni, resurs soliqlari esa 14,2 foizni tashkil etib, daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 foizga o'sganligi rasmiy hisobotlarda qayd etiladi [1].

Mintaqaviy darajada, jumladan Xorazm viloyati misolida soliq tushumlarining dinamikasini shakllantiruvchi omillarni ilmiy asoslash va ularning miqdoriy





bog'liqligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy tavsiflovchi statistik tahlil usullaridan farqli o'laroq, ekonometrik modellash tirish soliq tushumlari bilan uni belgilovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni aniqlash, ushbu bog'liqlikning statistik ishonchliligini baholash hamda kelgusi davrlar uchun asoslangan prognozlarni tuzish imkonini beradi. Bu borada Xorazm viloyati davlat budjeti soliq tushumlarining o'zgarish dinamikasini ekonometrik modellar yordamida tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish maqsad qilib olidani. Mazkur maqsadga erishish uchun soliq tushumlarini ekonometrik baholashga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish, mintaqaviy soliq tushumlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va mos ekonometrik model turini asoslash kabi vazifalar belgilanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq tushumlarini ekonometrik baholash bo'yicha jahon amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. Xususan, Xitoy iqtisodchilari tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotda soliq tushumlarini prognozlashtirishda ekonometrika va vaqt qatorlari usullari birgalikda qo'llaniladi [2]. Mahalliy soliq boshqarmalari uchun ilmiy asoslangan soliq undirish rejalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi model taklif etiladi [3]. Pokiston misolida o'tkazilgan tadqiqotda esa soliq tushumlarini prognozlashda vaqt qatorlari (VAR) modellaridan foydalanilganligi qayd etiladi [4]. O'zbekiston Respublikasi budjetiga foyda solig'idan tushumlarni modellash tirish va prognozlashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda esa 2017-2020-yillar statistik ma'lumotlari asosida qurilgan ekonometrik model yuqori aniqlik darajasini (aproksimatsiya aniqligi ko'rsatkichi 0,9854) namoyon etgani qayd etilgan. Bu esa mamlakatimiz sharoitida soliq tushumlarini ekonometrik modellash tirish yuqori amaliy samara berishini tasdiqlaydi.

O'zbekistonning 14 ta hududi bo'yicha 2014-2023-yillar panel ma'lumotlari asosida o'tkazilgan boshqa bir tadqiqotda mahalliy budjet daromadlariga qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining ta'siri baholangan bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasining hajmi 1 foizga o'sganda tegishli hududda soliq tushumlari sezilarli darajada oshishi aniqlangan, sanoat sohasining ta'siri o'rtacha ijobiy hamda qishloq xo'jaligi sohasining ta'siri esa salbiy xarakterga ega bo'lganligi ko'rsatilgan. Mazkur natijalar mintaqalar tarmoq tuzilishi soliq salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Bu esa Xorazm viloyati kabi qishloq xo'jaligi ulushi yuqori bo'lgan hududlar uchun alohida ekonometrik tahlil zaruriyatini kuchaytiradi.

Xorazm viloyati sharoitida soliq tushumlarini ekonometrik baholash uchun ko'p omilli chiziqli regressiya modelidan foydalanish maqsadga muvofiq, bunda bog'liq o'zgaruvchi sifatida viloyat budjetiga tushgan soliq tushumlari hajmi, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa mintaqaviy yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarish hajmi, faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ektlari soni, aholi bandligi darajasi va eksport hajmi kabi ko'rsatkichlar qo'llanilishi tavsiya etiladi. Modelning statistik jihatdan to'g'ri qurilganligini ta'minlash uchun ko'p chiziqli bog'liqlik (multikollinearlik), avtokorrelyatsiya va geteroskedastiklikka oid diagnostik testlarni o'tkazish lozim bo'ladi.



Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy budjet soliq tushumlarini ekonometrik tahlil qilish soliq salohiyatini baholashning ilmiy asoslangan vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hududiy soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Xorazm viloyati misolida mazkur tadqiqotni olib borish mintaqaviy iqtisodiyotning soliq salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2024-yil birinchi yarim yillik ijrosi to'g'risida hisobot. - T.: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nashri, 2024. - 120 b.
2. Modeling and Forecasting of Tax Revenue to the Budget for Profit in the Republic of Uzbekistan. // Proceedings of the International Conference on Finance, Economics, and Business Development (ICFNDS). - New York: ACM (Association for Computing Machinery), 2021. - pp. 145-150.
3. Evaluating the Influence of Regional Economic Factors on Local Budget Revenues Using Econometric Models. - Cham: Springer Nature Switzerland AG, 2025. - pp. 75-90.
4. Forecasting Tax Revenues Using Time Series Techniques: A Case of Pakistan. // Economic Research - Ekonomika Istraživanja. - Routledge (Taylor & Francis Group), 2018, Vol.31, No1. - pp. 123-138.



## SANOAT SOHASIDA BENCHMARKETING TIZIMINI JORIY QILISH

**Kalimullina N.V.**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot  
kafedrası dotsenti v.b., PhD.  
E-mail: [nargizak@urdu.uz](mailto:nargizak@urdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoat sohasida benchmarketing tizimini joriy qilish zaruriyati va xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, sanoat sohasida benchmarketing tizimini joriy qilish yuzasidan xulosa yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются необходимость и особенности внедрения системы сравнительного анализа в промышленном секторе. Также приводятся выводы относительно внедрения системы сравнительного анализа в промышленном секторе.

**Abstract.** This article discusses the need and features of implementing a benchmarking system in the industrial sector. It also provides a conclusion on the implementation of a benchmarking system in the industrial sector.

**Kalit soʻzlar.** Sanoat, soha, benchmarketing, korxona, tizim.

**Ключевые слова.** Отрасль, сектор, сравнительный анализ, предприятие, система.

**Key words.** Industry, sector, benchmarking, enterprise, system.

Zamonaviy sanoat bozorida keskin raqobat muhiti korxonalardan faqat ichki imkoniyatlar bilan cheklanib qolmasdan, jahondagi yoki sohadagi eng ilgʻor tajribalarni doimiy ravishda oʻrganish va oʻz faoliyatiga tatbiq etishni talab etadi. Bu borada benchmarketing eng kuchli strategik vosita sifatida eng yaxshi kompaniyalar tajribasini tahlil qilish va qoʻllashga asoslanadi. Sanoat sohasida strategik benchmarketingni qoʻllash korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirish, texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish hamda bozor konʻyunkturasi oʻzgarishlariga tezkor moslashish uchun qoʻllaniladi [1]. Yaʼni, benchmarketing eng yaxshi natija koʻrsatgan kompaniyalar tajribasini oʻrganadi.

Sanoat korxonalarida benchmarketing tizimini joriy qilish ishlab chiqarish jarayonlarini global miqyosdagi eng ilgʻor amaliyotlar bilan solishtirish orqali operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish va raqobat ustunligini taʼminlashga xizmat qiladi [2]. Sanoat korxonalari uchun benchmarketing - oddiy koʻchirib olish emas, yaʼni oʻz sohasidagi yetakchi ishlab chiqaruvchilar yutuqlariga erishganligini chuqur ilmiy-amaliy tahlil qilish va olingan natijalarni oʻz korxonasining texnologik hamda tashkiliy sharoitlariga moslashtirish jarayonidir. Respublikamiz sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish jarayonida xalqaro benchmarketing usullaridan foydalanish mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini



kuchaytirish hamda ichki va tashqi bozorlardagi o'rnini mustahkamlash sharti bo'lib hisoblanadi [3]. Ushbu benchmarking quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

- operatsion benchmarking. Bu ishlab chiqarish liniyalari quvvati, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan sarf-xarajatlar, xom ashyo va energiya resurslarini tejash ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarni solishtirishni anglatadi;
- funksional benchmarking. Bu faqatgina raqobatchilar emas, ya'ni boshqa sohalarda, xususan logistika va ombor menejmentida natijalarga erishgan boshqa tarmoq kompaniyalarida qo'llanilayotgan boshqaruv usullariga asoslanadi;
- strategik benchmarking. Bu korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish tezligi va investitsion siyosatini global tendensiyalarga moslashtirishni belgilaydi;

Sanoatda benchmarkingni samarali qo'llash uchun quyidagi aniq ketma-ketlikdagi bosqichlarga amal qilish lozim:

- ob'ekt va yo'nalishlarni tanlash. Korxonaning qaysi jarayoni oqsoqlanayotgani yoki modernizatsiyaga muhtojligi aniqlanadi (mahsulot tannarxini pasaytirish, brak foizini kamaytirish yoki yetkazib berish muddatini qisqartirish);
- etalon korxonalarni aniqlash. O'z sohasida global yoki mahalliy miqyosda eng yuqori ko'rsatkichlarga ega raqobatchi yoki hamkor korxonalar tanlab olinadi;
- ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish. Tanlangan etalon kompaniyalarning faoliyat ko'rsatkichlari ochiq manbalar, ilmiy hisobotlar yoki o'zaro tajriba almashinuvlar orqali o'rganiladi;
- qiyosiy tahlil. Korxonaning o'z ko'rsatkichlari bilan etalon ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq chuqur tahlil qilinib, orqada qolish sabablari ilmiy ochib beriladi;
- amaliy chora-tadbirlar va joriy etish. Aniqlangan farqlarni bartaraf etish uchun yangi texnologik uskunalar, zamonaviy standartlar (Lean Production yoki Six Sigma tizimlari) ishlab chiqarishga tatbiq etiladi;
- monitoring va baholash: Joriy qilingan yangiliklarning natijadorligi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari orqali doimiy ravishda nazorat qilib boriladi.

Shuningdek, sanoat korxonalarida benchmarkingni muvaffaqiyatli qo'llash quyidagi strategik natijalarni beradi:

- tannarxni keskin kamaytirish. Ilg'or xomashyo tejash va energiya samaradorligi texnologiyalarini o'zlashtirish orqali xarajatlarni maqbullashtirish;
- sifat va raqobatbardoshlik oshishi. Xalqaro standartlarga mos keluvchi yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash va iste'molchilar talablarini to'liq qondirish;
- innovatsion faollikning kuchayishi. Korxona xodimlarida doimiy izlanish, yangi g'oyalarni taklif qilish va ishlab chiqarishni takomillashtirish.

Xulosa shuki, sanoat sohasida benchmarking tizimini joriy qilish faqatgina raqobatchilarni kuzatib borish emas, ya'ni korxonaning ichki salohiyatini yangi bosqichga ko'taruvchi, xarajatlarni kamaytirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi muhim boshqaruv instrumenti bo'lib qaraladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Spendolini M.J. The Benchmarking Process. USA. - New York: Amacrom, 2013. - pp. 110-135.



2. Camp R.C. Benchmarking: The Search for Industry Best Practices That Lead to Superior Performance. USA. - Boston: Harvard business-press, 2006. - pp. 45-72.
3. Qosimova M.S., Abdullayev A.H. Sanoat marketing va menejmenti. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2019. - 188-210 b.





## RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAFFOFLIGINI TA’MINLASHDAGI O‘RNI

**Xudayberganov Ro‘zmamat Shokirjon o‘g‘li**

*Al-Xorazmiy universiteti,*

*Yoshlar bilan ishlash bo‘limi*

*bosh mutaxassisi*

*e-mail: [khudayberganovruzमत@gmail.com](mailto:khudayberganovruzमत@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy tezisdagi O‘zbekiston Respublikasida raqamli bank xizmatlarini jadal rivojlantirish hamda ularning milliy iqtisodiyotda moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va xufyona iqtisodiyot hajmini qisqartirishdagi strategik o‘rni atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘lamini kengaytirish, Masofaviy Bank Xizmatlari (MBX) va FinTech platformalarini joriy etish, Open Banking hamda biometrik identifikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Tijorat banklarida raqamli transformation jarayonlarini jadallashtirish va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli bank, FinTech, shaffoflik, xufyona iqtisodiyot, Masofaviy Bank Xizmatlari (MBX), Open Banking, ekotizim, kiberxavfsizlik, naqd pulsiz hisob-kitoblar.

### 1. KIRISH VA MAVZUNING DOLZARBLIGI

Bugungi kunda jahon xo‘jaligi globallasuvi va to‘rtinchi sanoat revolyutsiyasi (Industry 4.0) sharoitida moliya-bank tizimini raqamlashtirish har bir mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta’minlovchi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan Bank tizimini isloh qilish strategiyasi tijorat banklari faoliyatini tubdan transformatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni barcha xizmat turlariga tatbiq etish vazifasini qo‘ymoqda. Iqtisodiy shaffoflik — bu jamiyatda barcha moliyaviy oqimlar, pul muomalalari hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining ochiqligi va qonuniyligidir. Yashirin yoki xufyona iqtisodiyot esa har qanday davlatning soliq-byudjet barqarorligiga darz yetkazuvchi va adolatli raqobat muhitini buzuvchi asosiy omildir. Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, xufyona iqtisodiyotni ma’muriy bosim orqali emas, balki innovatsion va raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech) vositasida jilovlash eng yuqori samaradorlikni beradi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan aholi va biznes sub’ektlariga zamonaviy, tezkor hamda xavfsiz raqamli bank xizmatlarini taklif etilishi nafaqat mijozlar qulayligini oshiradi, balki iqtisodiyotda “Elektron iz” (digital footprint) tizimini shakllantirib, pul mablag‘larining xufyona aylanmasiga to‘siq qo‘yadi.



## 2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamli moliya texnologiyalarining iqtisodiy barqarorlik va shaffoflikka ta'sirini o'rganish bo'yicha xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xalqaro iqtisodchi olim K.Shvab o'zining "To'rtinchi sanoat revolyutsiyasi" asarida raqamli moliyaviy xizmatlar an'anaviy vositachilik xarajatlarini keskin kamaytirishi va operatsiyalar shaffofligini avtomat tarzda ta'minlashini ta'kidlaydi. Mahalliy olimlardan A.V.Vahobov, Sh.A.Tashmatov hamda U.M.Azizovlar o'z ilmiy izlanishlarida bank tizimini raqamlashtirish va masofaviy xizmatlar sifatini oshirish orqali pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmini kuchaytirish masalalarini tadqiq etganlar. Shuningdek, E.F.Gadoev va boshqa tadqiqotchilar naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish soliq tushumlarining to'liqligini ta'minlash va korrupsion xatarlarni kamaytirishdagi o'rnini ko'rsatib o'tganlar.

## 3. TAHLIL VA NATIJALAR

### Raqamli bank xizmatlarining shaffoflikni ta'minlash mexanizmlari

Raqamli bank xizmatlari quyidagi ustuvor yo'nalishlar orqali iqtisodiyotda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi:

- **Moliyaviy tranzaksiyalarning nazoratliliigi va izlanuvchanligi:** Har bir P2P o'tkazmasi, QR-kod to'lovi yoki E-commerce operatsiyasi tahliliy bazalarda (Big Data) saqlanadi. Bu xalqaro FATF (Financial Action Task Force) standartlariga mos ravishda noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi effektiv kurashish imkonini beradi.
- **Soliq va byudjet tushumlarining avtomatlashuvi:** Onlayn kassa mashinalari (NKM) va avtomatik soliq hisoblash tizimlarining tijorat banklari ilovalari (masalan, Click, Payme, Uzum Bank va b.) bilan integratsiyalashuvi soliq bazasining kengayishini ta'minladi.
- **Inson omilining va korrupsion xatarlarning qisqarishi:** Kredit berish jarayonlarining skoring tizimlari (Skoring / AI) va masofaviy identifikatsiya (MyID) orqali avtomatlashtirilishi bank xodimi va mijoz o'rtasidagi bevosita muloqotni cheklaydi, bu esa korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etadi.
- **Open Banking (Ochiq bank faoliyati) konsepsiyasi:** API (Application Programming Interface) texnologiyalari orqali tijorat banklari va uchinchi tomon FinTech kompaniyalari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi moliya bozorida sog'lom raqobat va ochiqlikni shakllantirmoqda.

## 4. MAVJUD MUAMMOLAR VA KIBERXAVFSIZLIK XATARLARI

O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining jadal o'sishiga qaramay, sohada qator tizimli muammolar va hal etilishi lozim bo'lgan to'siqlar saqlanib qolmoqda:

1. **Kiberxavfsizlik va moliyaviy firibgarlik.** Raqamli to'lovlar hajmi ortishi bilan fuqarolarning bank plastik kartalaridan mablag'larni noqonuniy yechib olish va fishing xatarlari ko'paymoqda. Bu esa aholining raqamli bank tizimiga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
2. **Aholining raqamli-moliyaviy savodxonligi:** Katta yoshdagi aholi va kichik tadbirkorlarning raqamli bank ilovalarining murakkab funksiyalaridan foydalana



olmasligi ularning an'anaviy naqd pul ko'rinishidagi hisob-kitoblarga ustunlik berishiga sabab bo'lmoqda.

## 5. XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xufyona iqtisodiyot ulushini keskin kamaytirish hamda moliyaviy shaffoflikni yangi bosqichga olib chiqishning hal qiluvchi omilidir. Raqamlashtirish darajasining har 10 foizga oshishi xufyona iqtisodiy bitimlar hajmini o'rtacha 2.5–3.2 foizga qisqartirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish va raqamli bank xizmatlarining shaffoflikni ta'minlashdagi rolini yanada oshirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. **Regulyativ qumdon (Regulatory Sandbox) va Blokcheyn:** Markaziy bank va tijorat banklari qoshida FinTech startaplarini hamda blokcheyn texnologiyasiga asoslangan smart-kontraktlarni xavfsiz amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini soddalashtirish va kengaytirish.
2. **Biometrik va ko'p bosqichli xavfsizlik (Multi-Factor Authentication):** Barcha masofaviy bank ilovalarida yuzni tanish (Face ID), barmoq izi va xulq-atvor biometriyasi asosida kiberxavfsizlik talablarini kuchaytirish va kiber-insidentlarga tezkor javob beruvchi SOC (Security Operations Center) markazlarini rivojlantirish.
3. **Kichik va o'rta biznes uchun komissiya stavkalarini optimallashtirish:** Boshlang'ich bosqichda tadbirkorlik sub'ektlarini elektron to'lov tizimlariga jalb qilish maqsadida ekvayring va POS-terminal komissiya to'lovlarini subsidiyalash yoki imtiyozli stavkalarni joriy etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–2024-yillardagi bank tizimi va to'lov tizimlari rivojlanishi bo'yicha yillik va choraklik hisobotlari. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).
4. Vahobov A.V., Jumaev N.H., Xotamov I.S. Bank ishi va raqamli moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2023. – 412 b.
5. Tashmatov Sh.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari jozibadorligini oshirish masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, 2023.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАРKASB TANLASHDA XARAKTER AKSENTUATSIYALARINING  
AHAMIYATI

Bashirov Botirbek Abduvohobovich

**Annotatsiya.** Tezisda o'smirlarning kasb tanlash jarayonida xarakter aksentuatsiyalarining o'rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Aksentuatsiya psixik kasallik emas, balki ayrim xarakter belgilarining me'yor doirasida kuchli ifodalanishi ekani asoslangan. Turli aksentuatsiya turlarining kasbiy qiziqish, qaror qabul qilish, muloqot, o'zini boshqarish va faoliyat sharoitiga moslashish bilan bog'liq jihatlari yoritilgan. Kasbga yo'naltirishda test natijasiga tayangan qat'iy hukmdan voz kechib, xarakter xususiyatlarini qiziqish, qobiliyat, motivatsiya va ta'lim imkoniyatlari bilan birgalikda baholash zarurligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smir, kasb tanlash, xarakter, aksentuatsiya, kasbiy o'zini o'zi belgilash, kasbiy qiziqish, psixologik diagnostika, kasbga yo'naltirish. Kasb tanlash o'smirlik davrining eng mas'uliyatli qarorlaridan biridir. Bu davrda o'quvchi o'zining qiziqishlari va imkoniyatlarini ta'lim yo'nalishlari hamda kasblarning real talablari bilan solishtira boshlaydi. Tanlovga oilaning kutishlari, tengdoshlar fikri, kasbning obro'si va mehnat bozori haqidagi tasavvurlar ta'sir qiladi. Biroq tashqi omillar bir xil bo'lgan sharoitda ham o'smirlar turlicha qaror qabul qiladi: biri faol ravishda ma'lumot izlaydi, ikkinchisi uzoq ikkilanishi, uchinchi esa atrofdagilarning fikriga ergashishi mumkin. Ushbu farqlarning muhim manbalaridan biri xarakter xususiyatlaridir.

Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasi ayrim xarakter belgilarining haddan tashqari kuchli ifodalanishini anglatadi. K. Leonhard aksentuatsiyalangan shaxslar haqida fikr yuritgan bo'lsa, A.E. Lichko o'smirlik davriga nisbatan "xarakter aksentuatsiyasi" atamasini qo'llashni ma'qul ko'rgan [1; 2]. Aksentuatsiya kasallik yoki tayyor tashxis emas. U me'yorning chekka ko'rinishi bo'lib, shaxs muayyan vaziyatlarda juda chidamli, boshqa bir vaziyatda esa nisbatan zaif bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu sababli kasbga yo'naltirishda aksentuatsiyani "qaysi kasb mumkin yoki mumkin emas" degan qat'iy mezon sifatida emas, o'smirning faoliyat uslubi va ehtimoliy qiyinchiliklarini tushunishga yordam beradigan psixologik ma'lumot sifatida talqin qilish lozim.

Kasbiy o'zini o'zi belgilash shaxsning bir martalik tanlovi emas, balki o'z imkoniyatlarini anglash, kasblar olamini o'rganish, muqobil yo'llarni solishtirish va qarorni qayta ko'rib borish jarayonidir. E.A. Klimov kasbiy tanlovda insonning "xohlayman", "qila olaman" va jamiyatga "kerak" bo'lgan talablarni muvofiqlashtirish zarurligini ta'kidlaydi [3]. Xarakter aksentuatsiyasi ushbu tarkibiy qismlarning o'rnini bosa olmaydi, lekin o'smirning maqsad sari qanday harakat qilishi, bosimga qanday javob berishi, jamoada qanday muloqot qilishi va noaniqlikni qay darajada ko'tara olishini anglashga yordam beradi.



Gipertim xususiyatlari kuchli o'smirlar odatda faol, kirishimli, tashabbuskor va yangi taassurotlarga ochiq bo'ladi. Ular tezkor muloqot, harakat va tashabbus talab qiladigan sohalarga qiziqishi mumkin. Savdo, tashkilotchilik, xizmat ko'rsatish, ommaviy kommunikatsiya yoki tadbirkorlik faoliyati ularga jozibador ko'rinishi ehtimol. Shu bilan birga, rejalashtirishdagi beqarorlik, tez zerikish va boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik xavfi mavjud. Kasbiy maslahatda bunday o'smirning faolligini cheklash emas, maqsadni bosqichlarga ajratish, muddat va mas'uliyatni kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim.

Sikloid va labil belgilar ustun bo'lgan o'smirlarda kayfiyat hamda ish qobiliyatining o'zgaruvchanligi kuzatilishi mumkin. Ular hissiy muhitni nozik his qiladi, insoniy munosabatlarga e'tiborli bo'ladi, biroq keskin tanqid yoki ziddiyatli vaziyatdan tez ta'sirlanishi ehtimol. Bunday xususiyatlarni kasbga yaroqsizlik belgisi deb bo'lmaydi. Aksincha, empatiya, vaziyatni his qilish va moslashuvchanlik inson bilan ishlanadigan kasblarda resurs bo'lishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlikda emotsional o'zini boshqarish, mehnat ritmini saqlash va stressga bardoshlilikni shakllantirish talab etiladi.

Sensitiv, xavotirli va psixastenik xususiyatlar mas'uliyat, ehtiyotkorlik, vijdonlilik, o'z faoliyatini tanqidiy baholash va xatoga yo'l qo'ymaslik istagi bilan namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu sifatlar tahlil, aniqlik va javobgarlik talab qiladigan faoliyatlarda foydali. Biroq kasb tanlash jarayonida o'z kuchiga ishonmaslik, xato qarordan qo'rqish va variantlarni cheksiz solishtirish kuzatilishi mumkin. Shuning uchun bunday o'smirlarga "tezroq tanla" deb bosim o'tkazishdan ko'ra, kichik kasbiy sinovlar, mutaxassis bilan suhbat, real vazifalarni bajarish va muvaffaqiyat tajribasini to'plash orqali ishonchni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Shizoid xususiyatlar mustaqil fikrlash, ichki dunyoning boyligi, noodatiy qiziqishlar va uzoq vaqt bir masalaga diqqatni jamlay olish bilan uyg'unlashishi mumkin. Bunday o'smir texnika, dasturlash, ilmiy izlanish, loyihalash yoki ijodiy faoliyatning ayrim yo'nalishlariga qiziqishi ehtimol. Shu bilan birga, intensiv muloqot, hissiy jihatdan murakkab jamoa va doimiy o'zini taqdim etish zarurati qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Kasbiy tavsiya berishda faqat "odamlar bilan ishlashni yoqtirmaydi" degan yuzaki xulosaga kelmasdan, uning qiziqishi, intellektual imkoniyati va muloqot ko'nikmalarini alohida baholash kerak.

Namoyishkor xususiyatlar kuchli bo'lgan o'smirlar o'zini ko'rsatishga intilishi, obraz yaratish, auditoriya e'tiborini jalb qilish va fikrini ifodali yetkazishga moyil bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar san'at, reklama, media, ta'lim, sahna, savdo yoki jamoatchilik bilan ishlashda foydali resursga aylanishi mumkin. Ammo kasb faqat obro', mashhurlik yoki boshqalarning olqishiga qarab tanlansa, uning kundalik mazmuni va mehnat talablari e'tibordan chetda qoladi. Shu bois bunday o'smir bilan kasbning tashqi jozibasi va real vazifalarini ajratib tahlil qilish zarur.

Pedantik, qotib qoluvchi yoki epileptoidga yaqin belgilar tartib, aniqlik, qat'iyat, ishni nazorat qilish va belgilangan qoidalarga amal qilishda namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu sifatlar hisob-kitob, hujjatlar, texnologik tartib, xavfsizlik va mas'uliyat talab qiladigan kasblarda muhim. Biroq haddan tashqari qattiqqo'llik, o'zgarishga sekin moslashish yoki ziddiyatga moyillik jamoaviy ishda qiyinchilik





tug'dirishi mumkin. Kasbiy rivojlanish jarayonida moslashuvchan fikrlash, nizoni konstruktiv hal qilish va turli nuqtayi nazarni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak.

Konform yoki beqaror xususiyatlari kuchli o'smirlar tengdoshlar ta'siriga tez berilishi, uzoq muddatli maqsadni ushlab turishda qiynalishi yoki kasbni do'stlari tanlagani uchun tanlashi mumkin. Bunday vaziyatda psixologning vazifasi o'smirlarga tayyor qaror berish emas, balki shaxsiy mezonlarni shakllantirishga ko'maklashishdir. "Bu kasb menga nimasi bilan mos?", "Undagi qaysi vazifani bajarishga tayyorman?", "Tanlovimni qaysi dalillar bilan asoslay olaman?" kabi savollar mustaqil fikrlashni kuchaytiradi.

Xarakter aksentuatsiyalari va kasbiy tanlov o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan I.V. Krizhanovskaya tadqiqotida turli fakultetlarda tahsil olayotgan 488 nafar talaba qatnashgan. Muallif Leonhard-Shmishek va Lichko metodikalari orqali ayrim aksentuatsiya turlarining fakultetlar bo'yicha turlicha ifodalanishini qayd etgan va xarakterologik xususiyatlar bilan kasbiy yo'nalish o'rtasida aloqa borligini ko'rsatgan [4]. Ushbu natija e'tiborga loyiq, ammo uni "falon tip faqat falon kasbni tanlaydi" degan to'g'ridan to'g'ri hukmga aylantirish mumkin emas. Tadqiqot talabalar orasida o'tkazilgan, kasbiy tanlovga esa xarakterdan tashqari qobiliyat, oilaviy sharoit, ta'lim imkoniyati va ijtimoiy talab ham ta'sir qiladi.

O'smirlarning professional o'zini o'zi belgilash amaliyotida individual xususiyatlarni yetarlicha hisobga olmaslik muammosi mavjud. O.B. Ilyina maktabdagi kasbga yo'naltirish ko'pincha qiziqish va moyillikni aniqlash bilan cheklanib, temperament, xarakter aksentuatsiyalari, kasb tanlash motivlari hamda qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar kamroq o'rganilishini qayd etadi [5]. Bu holat diagnostika natijasini umumiy va yuzaki tavsiyaga aylantirib qo'yishi mumkin. Samarali maslahat o'smirning individual portretini kasblarning aniq talablari bilan solishtirishi lozim.

Kasbga yo'naltirishda aksentuatsiyalarni baholash bir necha tamoyilga tayangan holda olib borilishi kerak. Birinchidan, aksentuatsiya kasallik sifatida talqin qilinmasligi va o'smirlarga salbiy yorliq yopishtirilmasligi zarur. Ikkinchidan, bitta test natijasi yakuniy xulosa uchun yetarli emas; suhbat, kuzatish, qiziqish va qobiliyat diagnostikasi, o'quv faoliyati hamda oila ma'lumotlari birgalikda o'rganilishi lozim. Uchinchidan, tavsiya kasb nomidan ko'ra faoliyat sharoiti va vazifalariga qaratilishi kerak. To'rtinchidan, o'smirlarga kuchli tomonlar bilan birga rivojlantirilishi zarur bo'lgan ko'nikmalar ham tushuntirilishi lozim. Zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlarda ham shaxs resurslarini aniqlash, o'zini boshqarish, kommunikativ va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirish kasbiy o'zini o'zi belgilashni qo'llab-quvvatlashning muhim qismi sifatida ko'rsatiladi [6].

### XULOSA

Xarakter aksentuatsiyalari o'smirning kasbiy qiziqishi, qaror qabul qilish uslubi, muloqoti, stressga munosabati va faoliyat sharoitiga moslashishida muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Biroq ular kasbni oldindan belgilab bermaydi. Bir xil aksentuatsiya turiga ega o'smirlar turli qobiliyat, qadriyat va ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli aksentuatsiyaga tayangan



holda qat'iy kasbiy cheklov yoki tayyor tavsiya berish ilmiy va amaliy jihatdan to'g'ri emas.

Kasbga yo'naltirishning samarali modeli xarakter xususiyatlarini o'smirning qiziqishi, qobiliyati, motivatsiyasi, emotsional holati, ta'lim natijalari va kasblarning real mazmuni bilan birga tahlil qilishni talab etadi. Aksentuatsiya haqidagi ma'lumot o'smirning kuchli tomonlarini ko'rish, ehtimoliy qiyinchiliklarni oldindan anglash va kasbiy moslashuv uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilgan taqdirdagina foydali bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Леонгард К. Акцентуированные личности. – Киев : Вища школа, 1981. – 392 с.
2. Личко А.Е. Психопатии и акцентуации характера у подростков : патохарактерологический диагностический опросник для подростков. – Санкт-Петербург : Речь, 2010. – 251, [5] с.
3. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения : учебное пособие. – Москва : Академия, 2004. – 301, [1] с.
4. Крыжановская И.В. Влияние акцентуаций характера на выбор профессий сферы экологии и природных ресурсов // Психолого-педагогические исследования. – 2010. – Т. 2. – № 2. – Ст. 3.
5. Ильина О.Б. Профессиональное самоопределение современных подростков: проблемы и пути их решения // Психолого-педагогические исследования. – 2014. – Т. 6. – № 3. – С. 255–263. – DOI: 10.17759/psyedu.2014060324.
6. Смоленкова В.А., Шпагина Е.М. Вопросы психолого-педагогического сопровождения профессионального самоопределения несовершеннолетних с отклоняющимся поведением в трудах отечественных психологов // Психология и право. – 2023. – Т. 13. – № 4. – С. 95–114. – DOI: 10.17759/psylaw.2023130408.



## O'ZBEK OILALARIDA EMOTSIONAL ALIENATSIYA VA OILAVIY KOMMUNIKATSIYANING PSIXOLOGIK ALOQADORLIGI

**Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi**

Mustaqil izlanuvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)

e-mail: [dildorichkayangiboyeva98@gmail.com](mailto:dildorichkayangiboyeva98@gmail.com)

**Annotatsiya:** Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, mehnat migratsiyasi, kasbiy bandlikning ortishi, oilaviy rollar va qadriyatlarning o'zgarishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt vositalarining kundalik hayotga keng kirib kelishi oila a'zolari o'rtasidagi muloqotning shakli, mazmuni va emotsional sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim oilalarda bevosita muloqotning qisqarishi, o'zaro tinglash va tushunishning susayishi, hissiy ehtiyojlarning yetarli ifodalanmasligi, psixologik qo'llab-quvvatlashning pasayishi hamda emotsional masofaning ortishi kuzatilmoqda. Quyida emotsional alienatsiya obyektiv ijtimoiy yakkalanish emas, balki shaxsning oilaviy munosabatlar tizimida o'zini tushunilmagan, qabul qilinmagan, qadrlanmagan va emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlanmagan deb his qilishi bilan tavsiflanuvchi murakkab psixosotsial holat sifatida izohlangan.

**Tayanch so'zlar:** emotsional alienatsiya, oilaviy kommunikatsiya, o'zbek oilalari, emotsional yaqinlik, kommunikativ ochiqlik, psixologik qo'llab-quvvatlash, o'zaro tushunish, er-xotin munosabatlari, ota-ona-farzand munosabatlari, oilaviy rezilientlik, raqamli kommunikatsiya.

XXI asrda yuz berayotgan globallashuv, urbanizatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda sun'iy intellekt tizimlarining kundalik hayotga faol kirib kelishi insonning nafaqat keng ijtimoiy munosabatlarini, balki oilaviy hayotning mazmuni va ichki psixologik tuzilishini ham sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Mazkur transformatsiyalar oila institutining funksional vazifalari, oilaviy rollarning taqsimlanishi, qadriyatlar tizimi, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, ota-ona va farzand aloqalari hamda oila a'zolarining bir-biri bilan muloqot qilish usullarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy oilada kommunikatsiya faqat axborot uzatish yoki kundalik vazifalarni muvofiqlashtirish vositasi emas. U oila a'zolarining emotsional ehtiyojlarini ifodalash, bir-birini tushunish, o'zaro ishonchni shakllantirish, psixologik xavfsizlikni ta'minlash va oilaviy mansublik tuyg'usini mustahkamlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Shu sababli oilaviy muloqotning mazmuni, ochiqligi va emotsional to'yinganligi oiladagi psixologik farovonlikning muhim mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tashqi jihatdan barqaror, moddiy ta'minlangan va ijtimoiy me'yorlarga mos ko'ringan oilalarda ham oila a'zolari o'rtasidagi ichki emotsional bog'liqlik zaiflashishi mumkin. Bir xonadonda istiqomat qilish, umumiy ro'zg'or yuritish yoki qarindoshlik rishtalarining mavjudligi har doim ham emotsional yaqinlikni anglatmaydi. Oila



a'zolari o'rtasida muntazam muloqot mavjud bo'lsa-da, mazkur muloqot faqat maishiy vazifalar, moddiy ehtiyojlar va tashkiliy masalalarni muhokama qilish bilan cheklanib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda insonning ichki kechinmalari, xavotirlari, ehtiyojlari va hissiy holatlari e'tibordan chetda qoladi. Natijada oila a'zosi yaqin insonlari davrasida bo'lishiga qaramay, o'zini tushunilmagan, tinglanmagan, qabul qilinmagan yoki qadrlanmagan deb his eta boshlaydi. Mazkur holat oilaviy munosabatlarda emotsional alienatsiyaning shakllanishiga zamin yaratadi.

Demak, emotsional alienatsiya oiladagi muloqotning miqdoriy kamligi bilangina emas, balki uning sifat jihatidan shaxsning emotsional ehtiyojlarini qondira olmasligi bilan belgilanadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda oilaviy farovonlikni baholashda nikohning davomiyligi, oila tarkibi yoki moddiy ta'minlanganlik kabi tashqi mezonlar bilan bir qatorda emotsional yaqinlik, o'zaro ishonch, kommunikativ ochiqlik, empatik munosabat, psixologik xavfsizlik va affektiv qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa oilani faqat an'anaviy ijtimoiy institut sifatida emas, balki a'zolari o'zaro ta'sir ko'rsatadigan, emotsional holatlar va kommunikativ jarayonlar orqali boshqariladigan yaxlit psixologik tizim sifatida o'rganishni talab etadi [1].

Emotsional alienatsiya insonning o'zini yaqin munosabatlar tizimidan hissiy jihatdan uzoqlashgan, ichki kechinmalari boshqalar tomonidan tushunilmayotgan va muhim emotsional ehtiyojlari qondirilmayotgan deb his qilishi bilan tavsiflanuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik holatdir. U shaxsning real ijtimoiy aloqalari soniga emas, balki mavjud munosabatlarning sifati va subyektiv qoniqarliligiga bog'liq. Shu jihatdan emotsional alienatsiyani obyektiv ijtimoiy yakkalanish yoki oddiy yolg'izlik bilan aynanlashtirish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Insonning atrofida ko'plab oila a'zolari, qarindoshlari va tanishlari bo'lishi mumkin, biroq u o'zini baribir emotsional jihatdan yolg'iz his qilishi ehtimoldan xoli emas. Aksincha, ijtimoiy aloqalari nisbatan cheklangan ayrim shaxslar mavjud munosabatlarini ishonchli, mazmunli va emotsional jihatdan qoniqarli deb baholashi mumkin. Demak, emotsional alienatsiyaning asosiy mezoni aloqalarning soni emas, balki ular orqali shaxsning tushunilish, qabul qilinish, qadrlanish, mansublik, yaqinlik va psixologik qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari qay darajada qondirilayotganidir. Oila doirasida ushbu ehtiyojlarning qondirilmasligi oila a'zolari orasida emotsional masofa, kommunikativ yopilish va ichki begonlashuvning kuchayishiga olib keladi. Emotsional alienatsiya emotsional yaqinlikning yuqori darajasidan chuqur hissiy uzilish holatigacha bo'lgan psixologik kontinuumda namoyon bo'lishi mumkin. Uning dastlabki bosqichlarida oila a'zolari o'rtasida suhbatlarning kamayishi, o'zaro qiziqishning susayishi, his-tuyg'ularni ochiq ifodalashdagi qiyinchiliklar va psixologik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi kuzatiladi [2].

Keyingi bosqichlarda esa befarqlik, o'zaro ishonchsizlik, muloqotdan qochish, emotsional sovuqlik, yashirin nizolar va oilaviy mansublik tuyg'usining pasayishi yuzaga kelishi mumkin. Muayyan hayotiy vaziyatlarda emotsional alienatsiya vaqtinchalik moslashuv reaksiyasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Yashash joyining o'zgarishi, yaqin insonni yo'qotish, uzoq muddatli migratsiya,



ajralish, oilaviy inqiroz, kasbiy zo'riqish yoki nizolar shaxsda vaqtinchalik hissiy uzoqlashuvni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatda emotsional noqulaylik insonni buzilgan munosabatlarni qayta tiklashga, yangi ijtimoiy-emotsional aloqalarni shakllantirishga yoki mavjud muloqot usullarini o'zgartirishga undovchi psixologik signal vazifasini bajaradi. Biroq oiladagi kommunikativ buzilishlar uzoq vaqt davom etsa, emotsional alienatsiya surunkali tus olishi mumkin. Surunkali emotsional alienatsiya shaxsning emotsional barqarorligi, o'zini o'zi baholashi, xulq-atvori, kognitiv faoliyati, shaxslararo munosabatlari hamda ruhiy va somatik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U oilaviy nizolarning ko'payishi, o'zaro ishonchning pasayishi, nizolarni konstruktiv hal qilish imkoniyatlarining cheklanishi va oilaviy rezilientlikning zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin [3].

O'zbek oilalari tarixan jamoaviylik, qarindoshlik rishtalarining mustahkamligi, avlodlararo birdamlik, kattalarga hurmat, o'zaro yordam va oilaviy qadriyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Mazkur xususiyatlar oila a'zolarining ijtimoiy mansublik va psixologik himoyalanganlik tuyg'usini ta'minlovchi muhim etnomadaniy resurs vazifasini bajargan. Biroq zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda an'anaviy oilaviy kommunikatsiya shakllari ham jiddiy o'zgarishlarga duch kelmoqda. Mehnat migratsiyasi, kasbiy bandlikning ortishi, turmush sur'atining tezlashuvi, oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi, avlodlar qadriyatlari o'rtasidagi tafovutlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayishi oila a'zolari o'rtasidagi bevosita muloqot imkoniyatlarini qisqartirmoqda. Ayniqsa, oilaviy muloqotning raqamli vositalarga ko'chishi uning shaklan ko'payishi, biroq mazmunan yuzakilashishiga olib kelishi mumkin [4]. Oila a'zolari kun davomida turli messenjerlar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashsalar-da, o'zlarining chuqur kechinmalari, ichki ehtiyojlari, xavotirlari va shaxsiy muammolarini yetarli darajada muhokama qilmasliklari mumkin. Bunday muloqot kommunikativ faollik mavjudligi haqidagi tasavvurni yuzaga keltiradi, ammo emotsional yaqinlikning shakllanishini to'liq ta'minlamaydi.

Raqamli qurilmalarga haddan tashqari berilish oilada "birgalikda, ammo alohida" bo'lish holatini yuzaga keltiradi. Ya'ni oila a'zolari jismonan bir makonda bo'lsalar-da, ularning diqqati turli virtual muhitlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Natijada ko'z bilan aloqa qilish, hissiy holatni kuzatish, suhbatdoshning ohangini anglash, empatik javob qaytarish va umumiy oilaviy tajribalarni shakllantirish imkoniyatlari kamayadi. Sun'iy intellekt vositalari axborot olish, kundalik muammolarni hal qilish va masofaviy aloqalarni qo'llab-quvvatlashda muhim imkoniyatlar yaratadi. Biroq ular insonlararo emotsional munosabatlarning o'rnini egallay boshlaganda, oila a'zolarining o'zaro maslahatlashish, bir-biriga murojaat qilish va hissiy qo'llab-quvvatlash ehtiyoji kamayishi mumkin. Shu sababli raqamli va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish oilaviy kommunikatsiyaning muqobili emas, balki uni to'ldiruvchi vosita sifatida tashkil etilishi lozim. O'zbek oilalarida emotsional alienatsiya ko'pincha ochiq nizolar shaklida emas, balki his-tuyg'ularni yashirish, muammolar haqida gapirmaslik, "oilaviy sirni tashqariga chiqarmaslik", kattalarga qarshi fikr bildirishdan tiyilish yoki oilaviy vazifalarni bajarishni hissiy yaqinlikning o'rnini bosuvchi omil sifatida qabul qilish orqali namoyon bo'lishi mumkin. Shu





bois tashqi intizom va funksional hamkorlikning mavjudligi har doim ham ichki emotsional integratsiya yuqoriligini anglatmaydi [5].

Emotsional alienatsiya fenomenini ilmiy jihatdan tushuntirish yolg'izlik konsepsiyasining psixologiya fanida shakllanish bosqichlarini tahlil qilishni talab etadi. Mazkur tushunchalar o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularning mazmuni va psixologik mexanizmlari bir xil emas. Yolg'izlik, avvalo, shaxsning o'z munosabatlarini yetarli emas yoki qoniqarsiz deb baholashi natijasida yuzaga keluvchi subyektiv emotsional kechinmani ifodalaydi. Emotsional alienatsiya esa ushbu kechinmaning muayyan munosabatlar tizimida, xususan, oila ichidagi muloqot, emotsional almashinuv, o'zaro qabul qilish va psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonlarining buzilishi orqali shakllanish mexanizmlarini tavsiflaydi. Oilaviy kommunikatsiya mazkur ikki fenomen o'rtasini bog'lovchi asosiy psixologik vosita hisoblanadi. Muloqotdagi ochiqlik, empatik tinglash va hissiy qo'llab-quvvatlash subyektiv yolg'izlikni kamaytirs, kommunikativ yopilish, befarqlik, doimiy tanqid, his-tuyg'ularni inkor etish va muloqotdan qochish emotsional alienatsiyani kuchaytiradi [6].

Shaxsiy differentsiatsiyaning yetarli rivojlanmaganligi, hissiy qaramlik, uchburchak munosabatlar, avlodlararo nizolar va emotsional uzilish oiladagi muloqotning buzilishiga olib keladi. Bunday sharoitda oila a'zolari muammoni ochiq muhokama qilish o'rniga sukut, masofa saqlash, ayblash yoki uchinchi shaxs orqali muloqot qilish strategiyalarini tanlaydilar. F.Walshning oilaviy rezilientlik konsepsiyasida ochiq kommunikatsiya, o'zaro qo'llab-quvvatlash, muammoni birgalikda hal qilish, umumiy qadriyatlar va moslashuvchanlik oilaning inqirozli vaziyatlarga qarshi turish resurslari sifatida baholanadi [7]. Oila a'zolari o'z fikr va his-tuyg'ularini xavfsiz tarzda ifodalay oladigan, bir-birini tinglaydigan va qiyinchiliklarga hamkorlikda javob beradigan oilalarda emotsional alienatsiya xavfi nisbatan kamayadi.

Bizningcha, oilaviy kommunikatsiyani emotsional alienatsiyaning oddiy tashqi belgisi sifatida emas, balki uning shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi markaziy ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida talqin qilish zarur. Chunki emotsional yaqinlik, o'zaro ishonch, psixologik qo'llab-quvvatlash, oilaviy hamkorlik va mansublik tuyg'usi aynan kommunikativ jarayonlar orqali yuzaga keladi, saqlanadi yoki buziladi. O'zbek oilalarida emotsional alienatsiya oilaviy munosabatlar tizimida emotsional ehtiyojlarning yetarli qondirilmasligi, o'zaro tushunish va ishonchning pasayishi, psixologik qo'llab-quvvatlashning susayishi hamda kommunikativ ochiqlikning cheklanishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Oilada muloqotning mavjudligi har doim ham uning emotsional jihatdan samarali ekanligini anglatmaydi. Oilaviy kommunikatsiyaning mazmuni faqat kundalik vazifalar va maishiy masalalar bilan chegaralanganida oila a'zolarining chuqur hissiy ehtiyojlari e'tibordan chetda qoladi. Shu sababli emotsional alienatsiyani baholashda muloqotning miqdoridan ko'ra uning ochiqligi, samimiyligi, empatikligi, o'zaro hurmatga asoslanganligi va psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga e'tibor qaratish muhimdir. Konstruktiv oilaviy kommunikatsiya oila a'zolarining o'zini tushunilgan, qabul qilingan va qadrlangan deb his qilishini ta'minlaydi. Kommunikativ yopilish, befarqlik, doimiy tanqid, his-



tuyg'ularni inkor etish, muloqotdan qochish va raqamli vositalarga haddan tashqari berilish esa emotsional masofani oshirib, alienatsiyaning chuqurlashishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirish o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning oldini olishning ustuvor psixologik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun oila a'zolarida empatik tinglash, his-tuyg'ularni konstruktiv ifodalash, o'zaro fikr almashish, nizolarni hamkorlikda hal qilish, birgalikda sifatli vaqt o'tkazish va raqamli vositalardan me'yoriy foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yangiboyeva D. R. Distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning psixologik determinantlari // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. - 2026. - № 7. - B. 357-364.
2. Yangiboyeva D. R. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda emotsional alienatsiya yuzaga kelishining ijtimoiy-psixologik omillari // Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar: ilmiy-nazariy jurnal. - 2026. - № 7. - 2-qism. - B. 30-37.
3. Yangiboyeva D. R. O'zbek oilalarida emotsional alienatsiya namoyon bo'lishining gender atributlari // Psixologiya: ilmiy jurnal. - Buxoro, 2026. - № 2. - B. 180-191.
4. Yangiboyeva D. R. Distant oilalardagi shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar transformatsiyasi // ISFT ilmiy-uslubiy jurnali. - 2026. - № 2. - B. 49-51. - ISSN 3030-329X.
5. Yangiboyeva D. R. Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation // Maktabgacha va maktab ta'limi. - 2026. - № 7 (2). - B. 219-224.
6. Yangiboyeva D. R. Distant oila farzandlarining psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar // Maktabgacha va maktab ta'limi. - 2026. - № 6 (3). - B. 531-536.
7. Yangiboyeva D. R. O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning psixosotsial reprezentatsiyalari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. - 2026. - № 6. - B. 90-97.



## ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ДИСКУРСИВНЫЕ УПРАЖНЕНИЯ

Муратова Дилором Махмудовна

Узбекский государственный университет

мировых языков, преподаватель

[Dilyamakh2332@gmail.com](mailto:Dilyamakh2332@gmail.com)

**Аннотация:** В статье рассматривается значение развития критического мышления студентов посредством использования дискурсивных упражнений в образовательном процессе. Анализируются особенности дискурсивного подхода, его влияние на формирование аналитических, коммуникативных и рефлексивных навыков обучающихся. Представлены практические методы организации учебной деятельности, направленные на повышение качества профессиональной подготовки будущих специалистов.

**Ключевые слова:** критическое мышление, дискурс, дискурсивные упражнения, образовательный процесс, студенты, коммуникация, анализ, рефлексия.

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarning tanqidiy fikrlashini diskursiv mashqlar orqali rivojlantirishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Diskursiv yondashuvning nazariy asoslari hamda uning tahliliy, kommunikativ va reflektiv ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi samarali pedagogik usullar tavsifiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, diskurs, diskursiv mashqlar, ta'lim, talabalar, muloqot, tahlil, refleksiya.

Современная система высшего образования ориентирована не только на передачу знаний, но и на формирование личности, способной самостоятельно анализировать информацию, принимать обоснованные решения и эффективно взаимодействовать с окружающими. В условиях стремительного развития информационных технологий, глобализации и увеличения объема доступной информации особую актуальность приобретает развитие критического мышления студентов. Именно критическое мышление позволяет будущим специалистам объективно оценивать различные точки зрения, аргументировать собственную позицию, выявлять логические ошибки и принимать рациональные решения в профессиональной деятельности.

Одним из наиболее эффективных средств формирования критического мышления являются дискурсивные упражнения. Они предполагают активное участие студентов в обсуждении различных проблемных ситуаций, анализе текстов, аргументированном обмене мнениями, ведении научной дискуссии и совместном поиске решений. Такой подход способствует развитию



интеллектуальной самостоятельности, коммуникативной компетентности и способности к рефлексии.

Критическое мышление представляет собой сложный интеллектуальный процесс, включающий анализ информации, сопоставление различных источников, выявление причинно-следственных связей, оценку достоверности фактов и формирование обоснованных выводов. В отличие от простого запоминания информации, критическое мышление ориентировано на осмысленное использование знаний в новых условиях.

Развитие критического мышления невозможно без организации образовательной среды, стимулирующей самостоятельный поиск информации, постановку вопросов и обсуждение различных проблем. Именно поэтому современные преподаватели все чаще используют интерактивные методы обучения, среди которых важное место занимают дискурсивные упражнения.

Под дискурсивными упражнениями понимаются виды учебной деятельности, основанные на активном речевом взаимодействии участников образовательного процесса. Их основная цель заключается не только в развитии коммуникативных навыков, но и в формировании способности аргументированно выражать собственную позицию, анализировать различные точки зрения и приходить к обоснованным выводам.

К наиболее распространенным видам дискурсивных упражнений относятся:

- академические дискуссии;
- дебаты;
- анализ проблемных ситуаций (case-study);
- круглые столы;
- интервью;
- групповые обсуждения;
- ролевые игры;
- анализ научных публикаций;
- аргументированное эссе.

Выполнение подобных упражнений способствует развитию навыков анализа, синтеза, сравнения, классификации и оценки информации. Кроме того, студенты учатся внимательно слушать собеседника, уважать альтернативные точки зрения и строить логически последовательную аргументацию.

Эффективность дискурсивных упражнений во многом определяется методикой их организации. Преподавателю важно создать такую образовательную среду, в которой каждый студент сможет свободно выражать собственную точку зрения, аргументировать свою позицию и уважительно относиться к мнению других участников обсуждения. Основной задачей преподавателя становится не передача готовых знаний, а организация продуктивного диалога, стимулирующего самостоятельное мышление обучающихся.



Организация дискурсивных упражнений включает несколько последовательных этапов. На первом этапе определяется проблема или дискуссионный вопрос, представляющий познавательный интерес и допускающий различные подходы к решению. На втором этапе студенты знакомятся с необходимыми источниками информации, анализируют научную литературу, нормативные документы и практические примеры. Далее проводится коллективное обсуждение, в ходе которого участники выдвигают аргументы, задают вопросы, анализируют альтернативные точки зрения и формулируют собственные выводы. Завершающим этапом является рефлексия, позволяющая оценить результаты работы, определить сильные и слабые стороны аргументации и наметить пути дальнейшего совершенствования.

Важным условием успешной реализации дискурсивного подхода является использование открытых проблемных вопросов, заставляющих студентов думать, анализировать перед тем, как дать правильный ответ. Именно такие задания стимулируют аналитическое мышление и активизируют интеллектуальную деятельность студентов. При этом преподаватель выполняет функции модератора, направляя обсуждение, поддерживая конструктивную атмосферу и помогая участникам аргументировать свои позиции.

### **Список литературы**

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. — Москва: Лабиринт, 2021.
2. Халперн Д. Психология критического мышления. — Санкт-Петербург: Питер, 2020.
3. Брукфилд С. Развитие критического мышления. — Москва: Юрайт, 2022.





**БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

**KIMYOTERAPIYA BILAN BOG'LIQ LEYKOPENIYANI BAHOLASHDA  
MIYELOGRAMMA VA PERIFERIK QON KO'RSATKICHLARINING  
O'ZARO DIAGNOSTIK AHAMIYATI**

**Lipartiya Meri Givievna**

Dsc

Toshkent davlat tibbiyot universiteti  
Fazliyev Mehrojiddin Shamsiddinovich

**Turaqulov Adash Farmonovich**

PhD

Abu Ali Ibn Sino nomidagi  
Urgut sog'liqni saqlash texnikumi  
gulzor34@list.ru

**Annotatsiya:** Kimyoterapiya fonida rivojlanadigan leykopeniya o'smaga qarshi davolashning eng ko'p uchraydigan gematologik asoratlardan biri hisoblanadi va ko'pincha davolash rejimini o'zgartirishga sabab bo'ladi. Amaliyotda bemorning gematologik holati, asosan, periferik qon ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Biroq ushbu ko'rsatkichlar suyak ko'migida kechayotgan o'zgarishlarni har doim ham to'liq aks ettirmaydi. Miyelogramma esa granulotsitopoezning morfologik holatini, suyak ko'migi rezervini va hujayralarning yetilish xususiyatlarini bevosita baholash imkonini beradi. Ushbu maqolada kimyoterapiya bilan bog'liq leykopeniyaning rivojlanish mexanizmlari, periferik qon va miyelogrammaning diagnostik imkoniyatlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi zamonaviy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Ushbu usullarning klinik amaliyotdagi afzalliklari, ushbu usullarning klinik amaliyotdagi afzalliklari va cheklovlari yoritilib, ularni kompleks qo'llash istiqbollari muhokama qilindi. Tahlil qilingan manbalar periferik qon va miyelogramma turli diagnostik vazifalarni bajarishini ko'rsatadi. Ushbu ikki diagnostik yondashuvni birgalikda qo'llash kimyoterapiya bilan bog'liq gematologik toksiklikni chuqurroq baholash hamda individual xavfni aniqroq prognozlash imkonini berishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** kimyoterapiya, leykopeniya, neytropeniya, miyelogramma, periferik qon, granulotsitopoez, suyak ko'migi, gematologik toksiklik.

**Kirish:** Ko'plab xavfli o'smalarda kimyoterapiya davolashning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, uning samaradorligi ko'pincha gematologik toksiklik bilan cheklanadi. Ayniqsa leykopeniya va neytropeniya klinik amaliyotda eng ko'p uchraydigan asoratlardan biri bo'lib, infeksiya kasalliklar rivojlanishi, shoshilinch hospitalizatsiya, antibakterial davolash zarurati hamda kimyoterapiya kurslarini kechiktirishga sabab bo'ladi [2,5].

Kimyoterapiya davomida rivojlanadigan leykopeniya nafaqat bemorning umumiy holatiga, balki o'smaga qarshi davolashning samaradorligiga ham bevosita ta'sir



ko'rsatadi. Sitostatik preparatlar dozasi kamaytirilishi yoki navbatdagi kursning kechiktirilishi davolashning rejalashtirilgan intensivligini pasaytiradi. Natijada kasallik ustidan nazorat qilish imkoniyatlari ham cheklanishi mumkin [5,7].

Kundalik amaliyotda leykopeniyani baholashning asosiy usuli periferik qon tahlili hisoblanadi. Leykotsitlar soni, absolyut neytrofillar miqdori (ANC) hamda leykotsitar formula bemorning joriy gematologik holatini tez va ishonchli baholash imkonini beradi. Davolashga oid ko'plab qarorlar aynan periferik qon ko'rsatkichlariga asoslanadi. G-CSF preparatlarini qo'llash, navbatdagi kimyoterapiya kursini boshlash yoki uni kechiktirish masalalari ham, avvalo, ushbu laborator ko'rsatkichlarga tayanadi [2,6].

Biroq klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, periferik qon natijalari har doim ham suyak ko'migidagi haqiqiy gemopoetik holatni to'liq aks ettirmaydi. Bir xil darajadagi neytropeniya kuzatilgan ikki bemorda granulotsitopoezning tiklanish sur'ati, infeksiya asoratlari rivojlanishi va keyingi davolash imkoniyatlari sezilarli farq qilishi mumkin. Periferik qon faqat kasallikning klinik ifodasini ko'rsatadi, biroq ushbu o'zgarishlarning morfologik sababini aniqlash imkonini bermaydi [3,9]. Shu nuqtai nazardan, suyak ko'migining morfologik tekshiruvi — miyelogramma — alohida ahamiyat kasb etadi. Ayrim murakkab klinik vaziyatlarda miyelogramma periferik qon tahlili bilan aniqlab bo'lmaydigan o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi [3,12].

So'nggi yillarda e'lon qilingan ilmiy ishlarda kimyoterapiya bilan bog'liq gematologik toksiklikni prognozlashda periferik qon va miyelogramma ko'rsatkichlarini birgalikda baholashga qiziqish ortib bormoqda. Zamonaviy prognostik modellar asosan periferik qon ma'lumotlariga asoslangan bo'lsa-da, ular suyak ko'migi rezervini hisobga olmaydi. Natijada morfologik xususiyatlarini klinik ko'rsatkichlar bilan birlashtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda [10–13].

**Maqolaning maqsadi** kimyoterapiya bilan bog'liq leykopeniyada periferik qon va miyelogrammaning diagnostik imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini baholash hamda klinik amaliyotdagi qo'llanilish istiqbollari yoritishdan iborat.

Kimyoterapiya bilan bog'liq leykopeniya sitostatik preparatlarning qizil suyak ko'migida joylashgan tez proliferatsiyalanuvchi gemopoetik hujayralarga ko'rsatadigan sitotoksik ta'siri natijasida rivojlanadi. O'sma hujayralarini yo'q qilishga qaratilgan preparatlar normal gemopoezda ishtirok etuvchi hujayralarga ham zarar yetkazadi. Natijada granulotsitlar hosil bo'lishi sekinlashadi, periferik qonda leykotsitlar va ayniqsa neytrofillar soni kamayadi [7,8].

Granulotsitopoez bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat murakkab biologik jarayon hisoblanadi. Polipotent ildiz hujayralardan boshlangan differensiyalanish natijasida mieloblast, promielotsit, miyelotsit, metamiyelotsit va segment yadroli neytrofillar hosil bo'ladi. Ushbu jarayon sitokinlar, koloniya stimullovchi omillar hamda suyak ko'migining mikroatrofi tomonidan boshqariladi [1,13].

Shu sababli so'nggi yillarda leykopeniyani faqat periferik qon natijalari asosida emas, balki suyak ko'migida kechayotgan morfologik o'zgarishlarni ham hisobga



olgan holda baholash zarurligi tobora ko'proq ta'kidlanmoqda. Ayniqsa granulotsitar o'simtaning holati, hujayraviylik darajasi va mielokariotsitlar soni keyingi gematologik toksiklikni prognozlashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin [9,11,12].

Onkologik amaliyotda kimyoterapiya bilan bog'liq leykopeniyani aniqlash va kuzatishda periferik qon tahlili asosiy diagnostik usul hisoblanadi. Mazkur tekshiruv oddiy bajarilishi, qisqa vaqt ichida natija berishi hamda davolashning barcha bosqichlarida takroran qo'llanishi mumkinligi bilan amaliyotda keng foydalaniladi. Leykotsitlar soni, absolyut neytrofillar miqdori (ANC), limfotsitlar va boshqa hujayraviy elementlarning dinamikasi bemorning joriy gematologik holatini baholash imkonini beradi [2,5].

Kimyoterapiya vaqtida periferik qon ko'rsatkichlari faqat laborator o'zgarishlarni emas, balki keyingi davolash taktikasini ham belgilaydi. Ayniqsa absolyut neytrofillar sonining kamayishi febril neytropeniya rivojlanish xavfi bilan bevosita bog'liq bo'lib, G-CSF preparatlarini qo'llash, antibakterial profilaktika o'tkazish, navbatdagi kimyoterapiya kursini kechiktirish yoki sitostatik preparatlar dozasini kamaytirish masalalarini hal etishda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi [2,6].

Periferik qon tahlilining yana bir muhim afzalligi uning dinamik kuzatuv imkoniyatidir. Kimyoterapiyaning har bir siklidan oldin va keyin qon ko'rsatkichlarini baholash orqali leykopeniyaning rivojlanish va tiklanish bosqichlarini kuzatish mumkin. Odatda sitostatik preparatlar yuborilgandan keyin 5–7-kunlarda leykotsitlar soni kamayishni boshlaydi, 7–14-kunlarda eng past ko'rsatkich kuzatiladi, keyinchalik esa suyak ko'migi rezervi saqlangan bemorlarda gemopoez asta-sekin tiklanadi [7,8].

So'nggi yillarda periferik qon ko'rsatkichlari asosida gematologik toksiklikni prognozlashga qaratilgan ko'plab matematik va statistik modellar ishlab chiqilgan. Ushbu modellarda bemorning yoshi, kimyoterapiya rejimi, boshlang'ich leykotsitlar soni, ANC, limfotsitlar, trombotsitlar va boshqa laborator parametrlar birgalikda tahlil qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda mashinali o'qitish algoritmlaridan foydalanish prognoz aniqligini yanada oshirishi mumkinligi ko'rsatilgan [10–13].

Shuningdek, periferik qon orqali granulotsitlarning kamayish sababi haqida ham to'liq xulosa chiqarib bo'lmaydi. Leykopeniya proliferatsiyaning susayishi, hujayralar yetilishining buzilishi, granulotsitlarning periferiyada parchalanishi yoki suyak ko'migi infiltratsiyasi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Umumiy qon tahlili ushbu holatlarni o'zaro farqlamaydi. Shu sababli periferik qon klinik qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lsa-da, ayrim murakkab holatlarda qo'shimcha diagnostik usullarga ehtiyoj tug'iladi [3,12].

Demak, periferik qon tahlili kimyoterapiya bilan bog'liq leykopeniyani aniqlash va kuzatishning asosiy usuli bo'lib qolmoqda. Biroq uning imkoniyatlari, asosan, gematologik toksiklikning klinik ifodasini baholash bilan chegaralanadi. Gemopoetik tizimning morfologik holatini aniqlash uchun esa qo'shimcha tekshiruvlar zarur bo'lishi mumkin.

Miyelogramma qizil suyak ko'migini sitologik tekshirish usuli bo'lib, gemopoezning morfologik holatini bevosita baholash imkonini beradi. Periferik qon



tahlili qon oqimiga chiqqan hujayralar sonini tavsiflasa, miyelogramma ushbu hujayralarning hosil bo'lish jarayoni, yetilish bosqichlari va suyak ko'migining funksional rezervi haqida ma'lumot beradi [3].

Kimyoterapiya bilan bog'liq leykopeniyada miyelogramma yordamida, avvalo, suyak ko'migi hujayraviyligi baholanadi. Hujayraviylikning pasayishi gemopoetik rezerv kamayganidan dalolat berishi mumkin, bu esa keyingi davolash bosqichlarida uzoq davom etuvchi sitopeniyalar rivojlanish xavfini oshiradi [3,13].

Mielokariotsitlar soni ham muhim diagnostik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ularning kamayishi suyak ko'migidagi umumiy proliferativ faollikning susayganini ko'rsatadi. Aksincha, me'yoriy yoki nisbatan saqlangan mielokariotsitlar soni gemopoezning tiklanish salohiyati mavjudligini bildirishi mumkin [3].

Shuni ta'kidlash lozimki, miyelogramma invaziv tekshiruv usuli hisoblanadi va uni barcha bemorlarda qo'llash maqsadga muvofiq emas. Aksariyat hollarda periferik qon tahlili davolash taktikasini belgilash uchun yetarli ma'lumot beradi. Miyelogramma esa, odatda, uzoq davom etuvchi sitopeniyalar, kutilmagan og'ir gematologik toksiklik, suyak ko'migi infiltratsiyasi yoki boshqa gematologik kasalliklarga shubha qilingan hollarda bajariladi [3,5].

Hozirgi vaqtda miyelogramma faqat tashxis qo'yish vositasi sifatida emas, balki gemopoetik rezervni tavsiflovchi istiqbolli prognostik marker sifatida ham o'rganilmoqda. Adabiyotlarda hujayraviylik darajasi, mielokariotsitlar soni, granulotsitar o'simtaning holati va neytrofillar yetilish ko'rsatkichlarini kelajakdagi gematologik toksiklik bilan bog'lashga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq ushbu parametrlarning prognostik qiymatini tasdiqlovchi yirik prospektiv klinik tadqiqotlar hali yetarli emas [11–13].

Mavjud ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, miyelogrammani periferik qon tahliliga muqobil usul sifatida emas, balki uni to'ldiruvchi qo'shimcha diagnostik vosita sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa murakkab klinik vaziyatlarda ushbu ikki usulni birgalikda qo'llash leykopeniyaning kelib chiqish mexanizmini chuqurroq tushunish hamda davolash taktikasini individual rejalashtirish imkonini beradi [9,12].

Kimyoterapiya bilan bog'liq leykopeniyada periferik qon va miyelogramma bir xil patologik jarayonning turli bosqichlarini aks ettiradi. Shu sababli ularning natijalari har doim ham o'zaro mos kelmaydi. Periferik qon gematologik toksiklikning klinik ifodasini tavsiflasa, miyelogramma ushbu o'zgarishlarning suyak ko'migidagi morfologik asosini ko'rsatadi. Aynan mana shu tafovut ayrim bemorlarda kuzatiladigan klinik farqlarni tushuntirishga yordam beradi [3,9].

Klinik amaliyotda bir xil darajadagi neytropeniya kuzatilgan bemorlarda davolash natijalari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ayrim bemorlarda qon ko'rsatkichlari qisqa muddat ichida tiklanadi, boshqalarda esa sitopeniya uzoq davom etadi, infeksiya asoratlari rivojlanadi va navbatdagi kimyoterapiya kursini kechiktirishga to'g'ri keladi. Periferik qon tahlili ushbu holatlarni oldindan farqlab bera olmaydi, chunki u faqat qon oqimidagi hujayralar sonini aks ettiradi [2,5].

